



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)  
—  
2023



## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati .....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lrim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning .....	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'nnaviy tafakkurini harakatl o'yinlar orqali rivojlantirish .....	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi .....	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish .....	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida .....	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish .....	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida .....	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosobat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari .....	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>82</b>
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi .....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish .....	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishslash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiyl o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONNOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishslash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida .....	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroqli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari .....	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarning ta'limg-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni .....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatl o'yinlardan foydalanish metodikasi .....	115
Mavjud NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiyl o'yinlar texnologiyasi .....	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi .....	125

- 36**
2. Губайдуллин А.А. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения. Автореферат диссер 13.00.01, кандидат педагогических наук. Казань, 2011.
  3. Лаптев В.В. Научный подход к построению программ исследования качества образования / модернизации общего образования на рубеже веков / Сборник научных трудов / В.В. Лаптев. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001.
  4. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность - М., 1977.
  5. Никонорова И.Я. Особенности использования системно-структурного критерия в определении профессиональной компетентности учителя: Дис. канд. пед. наук. - Комсомольск-на-Амуре, 2003.
  6. Осипова С.И. Развитие исследовательской компетентности одарённых детей ГОУ ВПО «Государственный университет цветных металлов и золота» [www.fkgru.ru/conf/17](http://www.fkgru.ru/conf/17).
  7. Плотникова Н.И. Общеучебные компетенции в структуре дистанционного курса на английском языке // Компетенции в образовании: опыт проектирования: сб. науч. тр. / под ред. А.В. Хуторского. -М., 2007.

## **TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARI JARAYONIGA PEDAGOGIK MAQSADLAR TAKSONOMIYASINI TATBIQ ETISH**

*Benjamin Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlarining kognitiv (bilish) sohada ifodalanishi bayon etilgan bo'lib, bu soha o'qilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o'zlashtirilgan bilimlarni to'la anglab, ularni oldin o'r ganilgan g'oya, uslub va harakat usullari bilan uyg'unlashtirib tasavvur etish hamda bilimlarni egallashgacha bo'lgan muammolarning hal etilishini o'z ichiga oladi. Maqolada takrorlash va mustahkamlash darslarida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish masalalariga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** Benjamin Blum taksonomiyasi, ta'lim texnologiyalari, pedagogik maqsadlar taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, baholash, faol o'qitish metodlari, zamonaviy ta'lim.

Известно, что таксономия Бенджамина Блума описывает выражение целей обучения в когнитивной (познавательной) области, которая варьируется от запоминания и пересказа прочитанного материала до полного осмыслиения полученных знаний и применения их на практике, включая решение задач вплоть до воображения. и приобретение знаний в гармонии с усвоенными идеями, методами и методами действия. Статья посвящена реализации таксономии педагогических целей на уроках повторения и закрепления.

**Ключевые слова:** таксономия Бенджамина Блума, образовательные технологии, таксономия педагогических целей, знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка, активные методы обучения, современное образование.

*It is known that Benjamin Bloom's taxonomy describes the expression of learning goals in the cognitive (knowing) area, which ranges from remembering and retelling the read material to fully understanding the acquired knowledge and putting it into practice. includes the solution of problems up to imagination and acquisition of knowledge in harmony with learned ideas, methods and methods of action. The article focuses on the implementation of the taxonomy of pedagogical goals in repetition and reinforcement lessons.*

**Keywords:** Benjamin Bloom's taxonomy, educational technologies, taxonomy of pedagogical goals, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation, active teaching methods, modern education.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, ijodkorligini, mantiqiy va kreativ fikrlashini yuqorida ko'tarish, o'quvchini o'quv - tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiropi, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal, tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. "Ta'lim metodlari turli ta'lim qonunlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ulardan biri ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonunidir. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik,mustaqillik), fikrlash

ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qaramaqarshilik muammolarni qurish, savollar qo'yan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'r ganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi".

Hozirda o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda. Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni mo'ljallaydi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy maqsadi - kirishuvchan, yuzaga

**38** kelgan muammoning uch-to‘rt xil yechimini topa oladigan ijodkor o‘quvchini tarbiyalashdir.

Zamonaviy ta’limda ona tili faniga qo‘yilayotgan talablar quyidagilar:

– o‘quvchilarni fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyanı rivojlantirish;

– o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarini) rivojlantirish;

– ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish malakasini ta‘minlovchi lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

“Lingvistik kompetensiya, – deb izohlanadi “Metodik atamalar va tushunchalar lug‘ati”da, – o‘rganilayotgan tilni uning sathlari: fonetika, leksika, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfolo-giya, sodda va qo‘shma gap sintaksisi, matn uslubi asoslari bo‘yicha egallash demakdir. Agar o‘quvchi

o‘rganilayotgan til tizimi haqida tasavvurga ega bo‘lsa va amalda undan foydalana olsa, lingvistik kompetensiyaga ega deyish mumkin”. Lingvistik kompetensiyasisiz u yoki bu tilni egallash mumkin emas. Chunki fikrni og‘zaki va yozma shaklda ifodalash uchun o‘rganilayotgan tilning fonetikasi va orfoepiyasi (tovush tizimi, urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash), leksikasi (so‘zlarni sinonimi, antonimi, omonimi bilan o‘rganish, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini, frazeologizmlarni anglash), so‘zning tarkibi (asos va qo‘shimchalarni farqlash, har bir turkumga xos grammatik shakllarni va ularning vazifalarini), sintaksisi (fikrni tasdiq yoki inkor qilish shakllari, ifoda maqsadga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq gaplar)dan yetarlicha xabardor bo‘lish kerak. Demak, lingvistik kompetensiya – nutqiy faoliyatni tartibga soluvchi grammatik qoidalarni amaliyatga joriy etish, ya’ni so‘z va jumalarni ma’lum nutqiy vaziyatda to‘g‘ri qo‘llay olish, fikrning gapdagi ifodasi to‘g‘ri-noto‘g‘riligini ajrata olish layoqatidir. Lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini quyidagicha ifodalash mumkin.(1-rasmga qarang).

**Фонографик компетенция**  
**Тилнинг талаффуз**  
**хусусиятлари, ўзига хос**  
**товушларини билиш**

**Лексик компетенция**  
**Тилнинг луғат таркибини**  
**билиш**  
**ва ундан муроқот жараённида**  
**фойдалана олиш**

## **ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯ**

**Орфографик, орфоэпик**  
**компетенция**  
**Сўзнинг имлосини билиш,**  
**оғзаки ва ёзма нутқда**  
**фойдалана олиш**

**Семантик компетенция**  
**Тилнинг ифода воситалари ва**  
**қоидаларидан фойдаланиш**  
**қобилияти**

**Грамматик компетенция**  
**Оғзаки ва ёзма нутқни грамматик**  
**жиҳатдан тўғри тузиш қобилияти**

1-rasm.Lingvistik kompetensiya tarkibi

Ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o‘z oldiga qo‘yilgan aqliy vazifalarini shuncha qiynalmasdan bajaradilar. O‘quvchi topshiriqlarni ishlash sirlarini o‘rganib borgan sari, unda ijodiy fikr yuritish

qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkoniyat yaratibgina qolmay, nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llashga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'limga oluvchilarning lingvistik kompetensiyalari metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan takrorlash va mustahkamlash darslarida yanada takomillashadi.

"Mustahkamlash - tugallangan materialni takrorlashga qaratilgan o'quv metodi bo'lib, bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirishni qamrab oladi. Mustahkamlash - ta'limga jarayonining ajralmas qismidir Til darslarida shakllangan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mustahkamlashning samarali usullari:

- umumlashtiruvchi ma'ruzalar,
- bahs- munozaralar,
- mashqlar bajarish,
- amaliy ishlar va boshqalar".

Mustahkamlash va takrorlash jarayonida o'quvchilarning dastlabki olingen bilimlarini ko'paytiribgina qolmay, balki yanada yangi ma'lumotlar bilan to'lishi, boyishi kerak. Yangi va ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalar o'rtasida yaqin hamda aniq aloqalarni o'rnatish tufayli ma'lumotlar ko'لامи, xulosalar kengaytirishi, chuqurlashishi va yangi faoliyat usullari shakllantirilishi zarur. Aynan mustahkamlash va takrorlash darslari o'quvchining o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashlari, yangi mavzuni o'zlashtirishdagi bo'shilqlarini to'ldirishga imkon beradi.

Mustahkamlash va takrorlash darslari o'quvchilarning yangi- yangi iste'dod va iqtidorlarini namoyon qilishga, mavzularni tushunish va idrok qilishga, yangi ma'lumotlarni to'laqonli o'zlashtirishga, bir so'z bilan aytganda, ona tili faniga qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qilishi kerak. Buning uchun darslarda turli interfaol metodlarni samarali qo'llash va mashg'ulotlarni to'g'ri rejallashtirish maqsadga muofiqdir.

Mustahkamlash va takrorlash darslarini rejallashtirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish kutilgan natijani beradi.

"Taksonomiya tushunchasi (grekcha – tartib bilan joylashtirish) biologiya fanidan olingen bo'lib, obyektlarni ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslanib toifalarini murakkablashib boradigan ketma-ketlikda (ya'ni ierarxik) joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish demakdir". Ma'lumki, Benjamin Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlarining kognitiv (bilish) sohada ifodalaniishi bayon etilgan bo'lib, bu soha o'qilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o'zlashtirilgan

bilimlarni to'la anglab, ularni oldin o'rganilgan g'oya, uslub va harakat usullari bilan uyg'unlashtirib tasavvur etish hamda bilimlarni egallashgacha bo'lgan muammolarning hal etilishini o'z ichiga oladi.

B.Blum rahbarligida amerikalik pedagog olimlar ishlab chiqqan o'quv maqsadlari taksonomiyasi butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan. B.Blum yaratgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi bilishga oid sohaga tegishlidir. Unda bilim olish jarayoni bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez (umumlashtirish) va baholash kabi oltita toifaga ajratib ko'rsatiladi. Bu toifalarining har biri uchun alohida bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan. Bilim olish jarayoni darajalarining saralanish va joylashtirish ketma-ketligini kuzatar ekanmiz, taksonomiya yaratuvchilari intellektual faoliyatning barcha toifalarini to'laroq va aniqroq qamrab olishga intilganliklarini anglash mumkin. Bu esa taksonomiya o'quv maqsadlarining faqat axborot berishga asoslangan odadagi usulga nisbatan takomillashgan, ilg'or usul ekanligidan dalolat beradi. Bir necha yillar davomida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida kognitiv, affektiv, psixomotorva operatsion-faoliyatli maqsadlar taksonomiyasining turli xil variantlari yaratilgan. Lekin bugungi kunda B.Blumning kognitiv sohadagi taksonomiyasi puxta ishlangan bo'lib, u nisbatan ommaviy tarzda yoyilgan. Uning amalda qo'llanishi ham mukammal o'rganilgan va u jahon pedagogikasida keng qo'llanilmoqda.

B.Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirish, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'quv maqsadlarining bunday ifodalaniishi o'qituvchi uchun ta'limga oluvchilarga ularning bilish faoliyati holatini tushuntirish, bu faoliyatni yakuniy natija tomon aniq yo'nalish olishiga undashi uchun imkoniyat yaratadi. Demak, o'zlashtirish monitoringi vujudga keladi. Bu taksonomiya fanni o'zlashtirish topshiriqlari tuzuvchilari uchun o'quv materiali elementlarini o'quv maqsadlarining qaysi toifasiga muvofiqligini aniqlashda ham qulaylik yaratadi.

Kognitiv soha bo'yicha B.Blum taksonomiyasi toifalarini ifodalovchi fe'llarning qisqacha ro'yxatini namuna sifatida keltiramiz (1-jadval)

40	Fe'llarning ro'yxati	Namunaviy mazmuni
	1. Bilish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dalillar, atamalarni bilish;</li> <li>- dalillarni tanlash usulini bilish;</li> <li>- belgilarni bilish;</li> <li>- rivojlanish tendensiyasini bilish;</li> <li>- turkumlashni bilish;</li> <li>- baholash mezonlarini bilish;</li> <li>- muayyan bir yoki bir necha muammoni hal qilishda qo'llaniladigan uslublarni bilish;</li> <li>- umumi tushuncha, nazariyalarni bilish;</li> <li>- hodisalar</li> </ul>
	2. Tushunish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mazmunni bir til (tizim)dan boshqasiga aylantirish;</li> <li>- izohlash;</li> <li>- olingan natijalarni yoyish yoki tatbiq etish.</li> </ul>
	3. Qo'llash	uslublar, qoidalar va umumi tushunchalarni vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash.
	4. Tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bir butun narsa (hodisa)ni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o'rtaqidagi bog'lanishlarni tuzish;</li> <li>- qismlarni tahlil qilish;</li> <li>- qismlar o'rtaqidagi munosabatni tahlil qilish;</li> <li>- yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillarini bilish.</li> </ul>
	5. Sintez, ya'ni yangi tarkib hosil qilish maqsadida berilgan qismlarni umumlashtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- matn yozish;</li> <li>- ish faoliyati rejasini tuzish;</li> <li>- berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofani yaratish;</li> <li>- insho(yesse) yozish.</li> </ul>
	6. Baholash, ya'ni maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash (munosabat bildirish)	6. Baholash, ya'ni maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash (munosabat bildirish)

Ta'lif oluvchilar tomonidan «bilish», «tushunish», «bilimlarni amalda qo'llash», «tahlil qilish», «sintezlash» va «xulosa yasash»ga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholash uchun Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 8- sinf "Ona tili" darsligi asosida ishlab chiqilgan ko'p javobli, yuqori samara beradigan nostandard test va topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### 1.Bilish o'quv maqsadi

Ta'lif oluvchilarni Blum taksonomiyasi bo'yicha **bilish** o'quv maqsadiga erishganligini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchi dalillarni tanlash usulini, belgilarni umumi tushuncha, nazariyalarni bilish, mavzu bo'yicha obyektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashi, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeanning mohiyatini bilishi, so'z ma'nolarini bilishi talab etiladi. O'quvchining lug'at boyligi oshadi. So'zlarni turli nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay oladi.O'quvchi **1.1 topshiriqni** bajarishda gapning umumiy ma'nosidan kelib chiqib mulohaza yuritsa, **1.2 topshiriqda** aynan so'zning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadi.

**1.1 topshiriq** 1. Boshimizga 1..... va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, me'yordan ortiq so'ylaganimizdan kelur. 2. .... deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z fe'lini saqlamoqqa aytilur. 3..... deb ibodatlarimizni, ishlarimizni o'z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilur. 4. .....deb gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqqa aytilur. Bizni gunohdan saqlaguvchi, harom-xarishdan nafsimizni asrovchi narsa faqat udir. 5. .....deb ishda, so'zda odobga rioya qilmoqni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shu 6..... nurning ziyyosiga muhtojdir.

So'zlar : Azob, kamtarlik , intizom, hayo, ma'naviy, iffat, gunoh,odob, ziyo, kulfat, viqor.

### 1.2-topshiriq.

1) buyuk donishmand -----

2) Yaratgan bergen ne'mat uchun savob ish qilmoq -----

- 3) nayza, yoy kabi jang quroli -----  
 4) nazmiy asarlar to‘plami -----  
 5) she’riy shakldagi ijod -----  
 6) borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy,  
 harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma’lumotlar, tushunchalar majmuyi; -----  
 -----  
 7) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish -----  
 8) biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba -----  
 9) o‘ylash, fikr yuritish -----  
 10) kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan ko‘nikmadan balandroq mahorat. -----  
 ----- (LUG‘AT so‘zlarni yozib qo‘yaman)

**2. Tushunish o‘quv maqsadi** da ta’lim oluvchilar mazkur o‘quv maqsadiga erishishi uchun mavzu bo‘yicha o‘rganilayotgan muammolarning yechimini topish, ahamiyatini anglash, asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. O‘quv materialidagi fikrlarni umumlashtirish, asosiy g‘oyani qayta ishslash, misollar keltirish, o‘z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi.

**2.1- topshiriq** - Javoblarni muvofiqlashtiring va nuqtalar o‘rniga javob raqmimi yozing. Diqqat! Ortiqcha javoblar bo‘lishi mumkin.

1.Rasmiy axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga mo‘ljallangan uslub	2.Ma’lumotnomasi Murodjon Yo‘ldoshevga uning O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida ishlayotganligi haqida berildi.	3.Oilada, ko‘cha-ko‘yda fikr almashish jarayonida qo‘llanadigan nutq uslubi.
4.G‘alaba! Sen uyimizga sovg‘a-salomlarga to‘lib emas, sillang qurigan holda kirib kelding	5.Unda badiiylik, ifodaviylik, ta’sirchanlik kuchli bo‘ladi.	6.Kimyoviy suv molekulasi bir atom kislород va ikki atom vodoroddan tashkil topadi
7.Bu uslubda adabiy nutqning og‘zaki me’yorlariga qat’iy rioya qilish talab etilmaydi.	8.Unda ilmiy atamalardan keng foydalilaniladi, ko‘chma ma’noli til ifodalari nihoyatda kam ishlatiladi.	9.Adabiy nutqning biror sohaga xoslangan shakli

- 1.So‘zlashuv uslubi .....  
 2.Ilmiy uslub .....  
 3. Rasmiy uslub .....  
 4. Badiiy uslub .....  
 5. Publitsistik uslub .....

**2.2- topshiriq.** Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar haqidagi to‘g‘ri hukmnini belgilang.

#### FIL HIKOYATI

**1.Filni bir xonaga qamab, umrida ko‘rmagan kishilarga ko‘rsatishdi.**

**2.Xona qop-qorong‘i bo‘lib, nafas olishidan u yerda bir maxluq borligi zo‘rg‘a bilinar edi.**

**3.Kishilar avval filni paypaslab ko‘rishdi va so‘ngra o‘z tasavvurlarini bayon qilishdi.** Hartumini ushlagani filni yo‘g‘on arqonga, qulog‘ini ushlagani yelpig‘ichga, oyoqlarini ushlagani ustunga, qornini ushlagani qoyaga o‘xshatdi. Shunday qilib, har bir kishi filni o‘zi paypaslagan narsasidek tasavvur qildi.

1. 1-gapda turlovchilar soni 5ta a) to‘g‘ri b) noto‘g‘ri
2. 2- gapda ravishlar soni 1ta a) to‘g‘ri b) noto‘g‘ri
3. 1-gapda sifatdosh bor a) to‘g‘ri b) noto‘g‘ri
4. 2- gapda 2 ta tovush o‘zgarishi bor a) to‘g‘ri b) noto‘g‘ri
5. 3- gapda ravishning 1xil ma’no turi ishtirok etgan. a) to‘g‘ri b) noto‘g‘ri

**3. Qo‘llash o‘quv maqsadi.** Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda nazariya va amaliyot birligi muhimdir. Demak, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyatga qo‘llash vaziyatlarini yuzaga keltirish zarur. O‘quvchi uslublar, qoidalar va umumiyl tushunchalarni vaziyat va topshiriqlarni hal


**42** qilishda qo'llaydi. Bunday ko'rinishdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quv materiali takrorlanadi,mustahkamlanadi.

**3-1 – topshiriq** ni bajarish jarayonida o'quvchi "Matn va uning turlari" mavzusida olgan bilimlari asosida shaklni to'ldiradi .

Javoblar:

- 1-Matn.Matnning ikki xil ko'rinishi mavjud.
- 2-Ma'lumot beruvchi matn. 3-Ijodiy- tavsifiy matn.

Ma'lumot beruvchi matnning 2 xil ko'rinishi mavjud: ma'lumotnomma matn(4),rasmiy matnlar (5) Ijodiy- tavsifiy matnlarning 3 xil ko'rinishi mavjud: ilmiy(6), publitsistik (7), badiiy (8), insho(9).



**3.2 – topshiriq .** Berilgan gaplardagi ko'makchilarni qo'shimchalar bilan almashtiring.

Gaplar	To'g'ri	Noto'g'ri
Vatanimiz mustaqillik sari (-ka) qadam qo'ydi.		
Biror nima to'g'risida(-da) xulosa chiqarish uchun unga ega bo'lish shart emas.		
O'zbek tili misoli(-ga) hali ochilmagan qo'riq.		
Yo'l chetida joylashgan temirchi do'kon oldida(-ga) biroz to'xtadi.		

- A. To'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri.
- B. To'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri.
- C. To'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri.
- D. noto'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri.

**4. Tahsil qilish o'quv maqsadi** da o'quvchi bir butun narsa (hodisa)ni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tuzish, qismlarni tahlil qilish,shu qismlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish, yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillarini bilish kabi malakalarini namoyon etadi. **4.1-topshiriq** da o'quvchi yordamchi va alohida olingan so'zlar turkumi mavzularidan olgan ma'lumotlarini qayta eslaydilar, yaxlitlaydilar, qismlarga ajratadilar.

#### 4.1-topshiriq.

Quyidagi so'zlarni turkumlariga ajrating va jadvalni to'ldiring.

**Diqqat!** Ayrim so'zlar jadvaldagagi so'z turkumlariga mansub bo'lmasligi mumkin.

Ehtimol, g'ir-g'ir, o'sha, ofarin, taqir-tuqur, nahotki, basharti, tez, qadar, agar, axir, go'yo, boshqa, hatto, sari, chunki, xuddi, keyin, balki, faqat, orqali. shekilli, evoh, afsuski, yana, yalt-yult, shubhasiz, hoy, duv-duv, beh-beh, albatta, qars-qurs.

Ko'makchi      Bog'lovchi      yuklama      undov so'z      modal so'z      taqlid so'z

**4.2- topshiriq.** Insho mavzulariga mos keluvchi fikrlarni moslashtiring.

Insho mavzusi	Tanlash uchun fikr
1. Muxtasar nutq-go'zal nutq	A) Adabiyot- atomdan kuchli.
2. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan tasviri	B)Qisqa yozishga vaqt yo'q kishi uzun xat

	yozadi.(Paskal)
3. Abdulla Qodiriyning badiiy mahorati	S) ) Moziyga qarab ish ko‘rish xayrlik deydilar.
4. Badiiy so‘z qudrati	D) Rimni alishmasman bedapoyangga...

- A. 1-b, 2-d, 3-a, 4-c    B. 1- a, 2-d, 3-b, 4-c  
**C. 1-b, 2-d, 3-c, 4-a**    D. 1- b, 2-a, 3-d, 4-c



5. **Bilimlarni sintezlash** o‘quv maqsadining asosiy mohiyati ta’lim oluv-chilar tomonidan mavzu mazmunidagi asosiy tushunchalarni fikran yoki amalda bir butun qilib birlashtirish,umumlashtirish, yaxlit holda tadqiq etishdir.

**5.1-topshiriq.**Quyidagi rasmlar bo‘yicha mulohaza yuriting . Ushbu rasmlarni o‘tilgan qaysi mavzular bilan bog‘lash mumkin?

1



2



1.

2.

3.

Javob: 1-rasmda suv va azot molekulalari tasvirlangan. Suv molekulasi sodda bog‘lanish, azot molekulalari murakkab bog‘lanishga misol bo‘ladi.

2- rasmda infuzoriya va inson tanasi tasvirlangan. Infuzoriya bir hujayrali mikroskopik jonivor,sodda tuzilishga ega.Inson organizmi esa murakkab tuzilishga ega.

Sodda va murakkab tushunchalar o‘quvchilarga **sodda va murakkab reja** haqidagi ma’lumotlarni yodga solishi, yuqoridagi suratlar bilan o‘xshashligini mantiqiy tafakkur orqali topishlari kerak.Ahamiyat bergen bo‘lsangiz, o‘quvchi 3 xil javob berishi kerak. Molekulalar, organizmlar haqidagi ma’lumotlar **ilmiy uslubda** bayon etiladi. Ilmiy farazlar,ilmiy ma’lumotlar **ilmiy inshoda** yoritiladi. Demak,umumiy javob:

- 1.Sodda va murakkab rejalar.
- 2.Ilmiy uslub.
- 3.Ilmiy insho.

**5.2-topshiriq.** Berilgan rejadagi qaysi qismdagи mavzu ortiqcha?

HAMID OLIMJON – BAXT VA SHODLIK KUYCHISI

I. Kirish. Hamid Olimjon – o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandası.

II. Asosiy qism:

1. Shoир she’riyatida baxtli muhabbat vasfi.
2. “Qayga borsam, boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib”.
3. Shoир ijodida shaxs kamoloti tasviri.

III. Xulosa. Hamid Olimjon she’riyati mangu barhayot!

A. 3 B. II C. 4 **D. 2**

Javob: D. 2 “Qayga borsam, boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib” satri ortiqcha.Sababi bu misralar muallifi Hamid Olimjon emas, Erkin Vohidovdir. Hamid Olimjon haqidagi inshoda shu shoир qalamiga mansub misralardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi.

**5.3 Ikkita matnni solishtiring. O‘xhash va farqli xususiyatlariga ko‘ra jadvalni to‘ldiring.**

**Matn 1**

Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog‘lom yigitga aylanib, Andijon chorbog‘ining supasida yotganday bo‘ldi. Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladi... Tun yarmidan oshganda Tohirning o‘kirib yig‘lagani qorong‘i bog‘ni zir titratdi...

**Matn 2**

44

**1527-yil oktabrida Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi.**

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan sultanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan „Bog'i Bobur“ga qo'yildi.

- Maqsadli auditoriya (qanday auditoriya uchun mo'ljallangan?)
- Til xususiyatlari

Mulohaza	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1-matn keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan, uslubi: badiiy, uslubni aniqlovchilar(obrazli, majoziy) masalan: shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi		
2-matn keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan. Uslubi: badiiy (asos solgan, bunyod ettirgan)		
2-matn tarixiy ma'lumot olish uchun mo'ljallangan. Uslubi: ilmiy, ilmiy uslubning tili- terminologiyani o'z ichiga oladi)		
1-matn tarixiy ma'lumot olish uchun mo'ljallangan. Uslubi: ilmiy.( yulduz, osmon)		

- A. To‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri
- B. To‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri
- C. To‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri
- D. To‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri

**(21)Har bir jumla uchun quyidagi jadvalda ko'rsatilgan mos gap yakunini (a-ye) toping**

1) ma'lumotnomaga matnda 2) ijodiy-tavsifiy matnda	a) so‘zlovchi axborotni o‘z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi; b) voqeа-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beradi; c) dalillar so‘zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalananadi; d) badiiy-tasviriy vositalar qo‘llanishi mumkin. e) so‘zlar hajmi inobatga olinadi
A. 1-B, e; 2-C,D B. 1-B, D; 2-C, A C. 1-A, B; 2-C, D D. 1-C, Ye; 2-B, D	

Xulosa qilib aytganda, har bir bo'lakni o'rganish uchun uni boshqa bo'laklar bilan birlashtirishda olib qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchi kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'quvchilar asosiy fikrni nomuhimdan, umumiyligini xususiylikdan, qismni butundan ajrata bilishlari, farqlashlari zarurdir. Maqsadni to‘g‘ri belgilash uchun turli interfaol usullardan foydalananish kutilgan natijani beradi. Ushbu maqsadni amalga oshirishning qulay jihatni esa albatta, umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash darslari hisoblanadi.

Ma'lumki, bilim berishda uslubiyatni o'rgatish muhim o'rinni tutadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi subyekt uslublarni farqlashni, ajratishni, solishtirishni puxta bilishlari lozim. Buning uchun esa ular umumiyligini ayrimlikni idrok kilishi, tasavvur etishi, butun hamda qismlarga ajratishni bexato bajarishlari zarur bo'ladi.

Psixolog olim E.Z.Usmanova ham tafakkurni rivojlantirish uchun analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, sistemalashtirish, klassifikatsiyalash muhimligini uqtirib o'tadi. Haqiqatan ham o'quvchilar o'rganganlarini aniq va puxta tushunishlari uchun ular tasavvurlarini, tafakkurlarini rivojlantirish lozim bo'ladi. Ushbu jarayonni sifatli amalga oshirish uchun eng qulay vaziyat mustahkamlash va takrorlash darslari hisoblanadi.

### Adabiyotlar

- 1.Иохвидов В. В. Актуальные вопросы современной педагогики: материалы IX Междунар. науч. Конференции, г. Самара- 2016, 6-10
- 2.<https://teacher.yandex.ru/posts/stavim-tseli-v-obrazovanii-taksonomiya-bluma>
- 3.Усмонова Э.З. Ўқувчиларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? Педагогика ва психология илмий-оммабоп нашри.-Т.:., 2000.-№1.-Б.29.